

**YANGI AVLOD OG'RIQ QOLDIRUVCHI VOSITALARNING
SAMARADORLIGI VA XAVFSIZLIGI**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Farmatsiya yo'nalishi

*3 - kurs talabasi **Sadullayeva Saida***

Annotatsiya; *Ushbu maqolada og'riq sindromi patofiziologiyasi, an'anaviy og'riq qoldiruvchi vositalarning cheklovlari hamda yangi avlod preparatlarining afzalliklari keng yoritilgan. Yangi avlod og'riq qoldiruvchi vositalar tarkibida COX-2 selektiv ingibitorlari, opioid retseptor modulyatorlari va kombinatsiyalangan preparatlar alohida o'rin tutadi. Ularning klinik samaradorligi, xavfsizlik profili, qo'llashda ehtiyot choralar va istiqbollari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *og'riq, yangi avlod preparatlari, COX-2 ingibitorlari, xavfsizlik, samaradorlik.*

Og'riq – inson organizmining muhim himoya mexanizmlaridan biri bo'lib, patologik jarayonlar haqida signal beradi. Tibbiyotda og'riqni nazorat qilish har doim dolzarb muammo bo'lib kelgan. An'anaviy analgetiklar (aspirin, paratsetamol, morfin va boshqalar) samarali bo'lsa-da, ko'plab nojo'ya ta'sirlarga ega. Shu bois, so'nggi yillarda yangi avlod og'riq qoldiruvchi vositalar ishlab chiqildi va ular klinik amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Og'riq fiziologiyasi va ahamiyati Og'riq retseptorlari – noretseptorlar – periferik nervlarda joylashgan bo'lib, ular mexanik, kimyoviy va issiqlik ta'sirlariga javob beradi. Og'riq markaziy nerv tizimi orqali uzatiladi va organizmni himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, surunkali og'riq sindromlari inson hayot sifatini keskin pasaytiradi.

An'anaviy og'riq qoldiruvchi vositalar va ularning cheklovlari; NSAIDlar (nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositalari): Aspirin, Ibuprofen. Kamchiliklari: me'da-ichak shilliq qavatini zararlashi, qon ketishga moyillikni oshirishi. Opioidlar: Morfin, Kodein. Kamchiliklari: kuchli qaramlik chaqiradi,



nafas markaziga susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Paratsetamol: Samarali antipiretik va analgetik, ammo yuqori dozalarda jigar toksikligiga olib keladi.

Yangi avlod preparatlari; 1. COX-2 selektiv ingibitorlari Nimesulid, Celekoksib, Etorikoksib. Afzalliklari: me'da-ichakka zarar yetkazishi ancha past, samaradorligi yuqori. Klinik qo'llanilishi: artrit, revmatizm, surunkali og'riqlarda keng qo'llaniladi. 2. Opioid retseptor modulyatorlari Tramadol, Tapentadol. Afzalliklari: morfinga qaraganda qaramlik chaqirish xavfi past, qo'shimcha antidepressant ta'sirga ega. Kamchiligi: yuqori dozada qo'llansa bosh aylanishi, ko'ngil aynishi kuzatilishi mumkin. 3. Kombinatsiyalangan vositalar Paratsetamol + Kofein, Ibuprofen + Paratsetamol. Afzalliklari: og'riqni samarali kamaytiradi, dozani kamaytirish imkoniyati bor. Qo'llanilishi: bosh og'riqlari, nevralgiyalar, mushak og'riqlari. Yangi avlod dorilarining klinik sinovlari natijasida samaradorligi yuqori ekani isbotlangan. Gastrointestinal nojo'ya ta'sirlar kamroq uchraydi. Qaramlik va jigar toksikligi xavfi an'anaviy vositalarga nisbatan pastroq. Minimal samarali dozada qo'llash. Bemorning yoshi, somatik kasalliklari va individual xususiyatlarini hisobga olish. Kombinatsiyalangan terapiya orqali dozalashni kamaytirish. Klinik monitoring va laborator nazoratni kuchaytirish.

Xulosa;

Yangi avlod og'riq qoldiruvchi vositalar yuqori samaradorlikka ega bo'lib, an'anaviy preparatlarga qaraganda xavfsizroq hisoblanadi. COX-2 selektiv ingibitorlari va opioid retseptor modulyatorlari klinik amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ularning nojo'ya ta'sirlari nisbatan kam bo'lsa-da, mutlaq xavfsiz emas. Shu bois, individual yondashuv, dozalashni to'g'ri tanlash va muntazam monitoring muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Rang HP, Dale MM, Ritter JM. Pharmacology. 8th edition. Elsevier, 2022.
2. Brunton LL, Hilal-Dandan R, Knollmann BC. Goodman & Gilman's: The Pharmacological Basis of Therapeutics. 13th edition. McGraw-Hill, 2018.
3. Vane JR, Botting RM. Mechanism of action of nonsteroidal anti-inflammatory drugs. Am J Med. 1998;104(3A):2S-8S.



4. Moore RA, Derry S, McQuay HJ. Newer COX-2 inhibitors for pain management. Cochrane Database of Systematic Reviews. 2015.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Farmakologiya qo‘llanmasi. Toshkent, 2021.